
"XO'JA ARIQ" MAHALLASIGA DAVLAT DASTURI ASOSIDA YANGI TRANSFORMATOR O'RNATILDI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2022-2023 yillarda mahallalar infratuzilmasini yanada yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq Toshloq tumanining "Xo'ja ariq" mahalla fuqarolar yig'ini hududining elektr ta'minoti yaxshilanmoqda.

Hududga 80 dan ortiq yangi temir-beton tayanchlari olib kelib o'rnatildi. 3 km uzunlikda yangi elektr uzatish tarmog'i qurib bitkazildi. Loyiha asosida hududdagi 559-sonli transformator punktiga qo'shimcha quvvati 160 kVA bo'lgan yangi transformator punkti o'rnatildi.

Mutaxassislar tomonidan ayni vaqtda yangi transformator punktini montaj qilish ishlari olib borilmoqda.

2023-01-31 15:40:07